

MARKAZIY FARG'ONA SUV OMBORINING BALIQCHILIK SHAKLLANGAN QISMINING FITOPLANKTON TUR TARKIBI

Muhammedov Mo'minjon

Farg'ona davlat universiteti

mominjonmuhammedov@gmail.com

Annotatsiya: Respublikamizda baliqchilik xo'jaligiga bo'lgan e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda, baliqchilikni rivojlantirishda tabiiy ozuq ba'zalarini o'rni beqiyos, ularning tur tarkibini tadbiq qilish muhim masala hizoblanadi, maqolada Markaziy Farg'ona suv omborining baliqchilik shakllantirilgan qismida fitoplanktonlarning tur tarkibi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Farg'ona suv ombori, Fitoplankton, Hidrobiologik tahlil, cyanophyta, bacillariophyta, chryzophyta, cryptoxyta, euglenophyta, dinophyta, chlorophyta.

KIRISH

Respublikamiz tabiiy va sun'iy suv havzalaridagi baliq zahiralari aholining baliq mahsulotlariga bo'lgan talabini qondira olmayotgani tufayli ham baliq yetishtiruvchi hovuzlarda ushbu oqsilga boy va parhezboq ozuqa manbaini ko'plab miqdorda yetkazib berish bugungi kunning baliqchilikdagi dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. So'nggi yillarda baliqchilikni rivojlantirishga qaratilgan juda ko'plab amaliy choratadbirlar amalga oshirilmoqdaki bularning barchasi hududda baliq mahsulotlarini ko'plab miqdorda yetishtirish imkoniyatini keltirib chiqarmoqdi. Ovlanayotgan baliqlarning aksariyati sun'iy ko'llarda yetishtirilayotgani e'tiborga oliadigan bo'lsa ushbu o'ziga xos ekotizimda baliqlar o'ta zich holatda yetishtirilishi tabiiydir. Ma'lumki hovuzlarga baliqlar tabiiy ozuqa bazasini ko'paytirish va rivojlantirish uchun turli xil mineral o'g'itlar ham kiritiladi. Ushbu o'g'itlar baliqlarning ozuqasi hisoblanmish fitoplankton, fitobentos organizmlarning rivojlanishiga va bu esa o'z navbatida hovuzlardagi baliq mahsuldorligini oshirishga olib keladi.

Markaziy Farg'ona suv ombori fitoplanktonning tur tarkibi, ekalogiyasi adabiyot manbalari asosida va tadqiqot ishlari orqali o'rganildi va yangi ilmiy ma'lumotlar to'planadi

NATIJALAR

Respublikamizdagi ko'plab qurilgan irrigatsion suv havzalari qatorida suv omborlari ham nafaqat irrigatsiya maqsadlarida balki baliq yetishtirish maqsadida ham ishlatilishi zarur bo'lib qoldi. Ushbu suv havzalarida ratsional baliqchilikni tashkil etish orqali maksimal darajadagi baliq mahsuldorligiga

erishish mumkin bo‘lmoqda. Ratsional baliqchilik xo‘jaligi deyilganda biror suv havzasidan maksimal darajada baliq mahsulotlarini yetishtirish va ovlash nazarda tutiladi.

Fitoplankton. Hidrobiologik tahlillar natijasida o‘rganilayotgan suv havzalarining fitoplankton va zooplanktonlar tur tarkibi aniqlandi. Suv o‘tlarining jami 55 ta turi aniqlandi.

1-jadval. Fitoplanktonning taksonomik tarkibi. (№ 1 Markaziy Farg‘ona suv ombori;

TAKSON / № suv havzalari	
CYANOPHYTA	18
BACILLARIOPHYTA	13
CHRYZOPHYTA	4
CRYPTOPHYTA	2
EUGLENOPHYTA	1
DINOPHYTA	5
CHLOROPHYTA	12
Турлар сони	55

Gidrobiologik tahlillar natijasida suv omborining fitoplankton tur tarkibi aniqlandi. Suv o‘tlarining jami 55 turi aniqlandi.

Plankton jamoa ichida dominant kompleks produtsentlardan iborat bo‘lib, ularning ichida eng xilma-xil va rivojlangan suv o‘tlaridan diatom suv o‘tlari bo‘ldi (Bacillariophyta) – 13 tur, ko‘k-yashil suv o‘tlari (Cyanophyta) – 2 tur, yashil suv o‘tlari (Chlorophyta) – 12 tur va tillarang (Cryzophyta) 4 ta hamda evglenasimonlar (Euglenophyta) 1 ta turdan, dinofitsimonlar (Dinophyta) – 5 tur, kriptofitlar 2 ta turdan tashkil topdi (Cryptophyta).

Farg‘ona vodiysida turli yillar mobaynida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida turli suv xavzalaridan to‘plangan manbalardan xamda o‘z kuzatishlarimiz natijasida yigilgan ma’lumotlarda foydalandik. Farg‘ona vodiysi suv xavzalari gidrobiologiyasining o‘rganilish tarixi, tabiiy va sun’iy suv xavzalarida gidroflora va gidrofaunaning tarqalish qonuniyatlari, ularning rivojlanishi va baliqchilikni rivojlantirishga ta’siri kompleks tarzda taxlil kilindi.

Turli xil suv havzadagi fito va zooplanktonlarning tarkibi o‘rganilib, ularning baliqchilikdagi ahamiyati muhokama qilindi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muhammadiyev A.M. “Гидробиология водоемов Ферганской долины”
Tashkent. Fan. 1967

2. Mirabdullayev I.M va boshqalar. O'zbekiston va qo'shni hududlar aniqlagichi. "Sano-Standart" nashriyoti. T. 2011 y

3. Mustafaqulov X. Umumiy gidrobiologiyadan amaliy mashg'ulotlar. Respublika fan va texnologiyalar markazi. Toshkent. 2011

4. Mo, M. (2022). BALIQCHILIK HOVUZLARIDAGI BA'ZI TABIIY OZUQALARNING GIDROBIOLOGIK TAHLILI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 332-337.

5. Muhammedov, M. M., A'zamov, O., Xamidov, A., & Alimdjanova, M. (2021, July). BIOLOGY AND COMPOSITION OF ICHTHYOFAUNA OF LAKE SARYKAMYSH. In Konferensi.

6. BALIQCHILIK HOVUZLARIDA FITOLANKTONNING SHAKLLANISHI VA ULARNING MIQDORIY KO'RSATGICHLARI

Y Abutolib, M Mo'minjon

World of Science 6 (4), 187-191

7. TURLI SUV HAVZALARIDAGI FITOPLANKTONNING TUR TARKIBI

Y Abutolib, M Mo'minjon

Scientific Impulse 1 (9), 110-118

8. BALQIQCHILIK HOVUZLARINING GIDROKIMYOVIY TAHLILI

M Mo'minjon, Y Abutolib

World of Science 6 (4), 192-196

9. A' zamov, O., Xamidov, A., & Alimdjanova, M.(2021, July). BIOLOGY AND COMPOSITION OF ICHTHYOFAUNA OF LAKE SARYKAMYSH

MM Muhammedov

Конференции